

O‘SMIRLARDA O‘ZINI ANGLASH JARAYONINING O‘ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i1.049>

Abdunazarova Shoxro‘za Shamsiddin qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Jizzax filiali o‘qituvchisi

ruzashyusupova@gmail.com

Annotatsiya: O‘z-o‘zini anglash mazmuni ichki va tashqi qismlarga ega. Ichki o‘z-o‘zini anglash bizning ta’sirlarimiz, e’tiqodlarimiz, idroklarimiz, qiziqishlarimiz, maqsadlarimiz, shaxsiyatimiz, qadriyatlarimiz va mazmunli hayot shakllarini o‘z ichiga oladi. O‘smirlarda xarakter, motivatsion yo‘nalishda, ideal va real “Men” timsolidagi o‘zini namoyon qilishdagi nomutanosiblik xos.

Kalit so‘zlar: “Men” timsoli, o‘zini anglash, ideal va real qiziqishlardagi beqarorlik, hissiy va kognitiv o‘zgarishlar

O‘smirlik davri- bu psixofiziologik beqaror rivojlanish davri bo‘lib, o‘zini xarakter va shaxs sifatini, ijtimoiy muhitdagi o‘rnini mustaqil o‘rnatishga va aniqlashga harakat qilish davri hisoblanadi. Bu davrda o‘smirlar o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini, bahosini, boshqara olishini, nazorati, o‘ziga munosabat, o‘zini qabul qilish, o‘ziga bog‘langanlik, o‘zini aybdor bilish va o‘z-o‘ziga bo‘lgan nizolashuvchanligini shakllantiruvchi, o‘zini tashqi va ichki jihatdan anglash bosqichi kechadigan bosqich hisoblanadi. O‘smirlarda yuqoridagi o‘zini anglash komponentlarining rivojlanishi ular yashayotgan ijtimoiy muhitning o‘rni va ta’siri bilan belgilanadi. Ijtimoiy muhitdagi shaxslar va ularning o‘smirlarga munosabati bu davrdagi bolalarning mustaqil “Men” lik timsolini adekvat va tog‘ri shkallanishiga bevosita bog‘liq. Shu bilan birga ideal va real “Men” likning o‘rtasida farqlarning katta kuzatilishi ham ularning o‘zini anglash jarayonlarining shakllanishiga bog‘liq hisoblanadi. O‘smirlarda bugungi kunda o‘zini anglash jarayonini shakllantirish juda muhim jarayon hisoblanadiki, bu rivojlanishni oila yetakchi vakillar, pedagogik sohadagi o‘qituvchilar va yetakchi mas‘ul hodimlar va boshqa yaqin shaxslar tomonidan ahamiyat berish va bevosita va bilvosita adekvat munosabat bildirish muhim hisoblanadi. B.G. Ananov izlanishlarida aks etishicha, o‘zini o‘zi anglashning paydo bo‘lish omili- odamning individual xususiyati, faoliyat subyektiligi, shaxslilik xususiyatlarining tarkib topishidagi notekislik va geteroxronlikdir. Uning mulohazasiga ko‘ra, o‘zini o‘zi anglash ana shu uchala xususiyatni o‘zaro muvofiqlashtiradi va xuddi shu tariqa ongning individualligini ta‘minlab turadi.[1]

Demakki o'smirlar o'rtasida bugungi kunda eng dolzarb bo'lgan muammolardan : o'ziga ishonch va bahoning past bo'lishi, o'zidagi "Men"likdan qoniqamaslik, o'zini ayblash oqibatida turli darajadagi xulqiy og'ish holatlarning, suitsidal holatlarning yuzaga kelishi, nafaqat O'zbekistonda balki boshqa ko'plab xorijiy davlatlarda ham yuzga kelayotgan masalalardan hisoblanadi. Ushbu holatlarning asosiy sabablari ham o'smirlardagi kognitiv o'zini anglash jarayonini tog'ri tahlil qiladigan ilmiy va hayotiy bilimining yetarli emasligi, o'zini adekvat anglash komponentlarini shakllantirishga oid ijtimoiy munosabatlar va ta'lim tarbiyalarni tashkil qilish lozim hisoblandi. Shunindek, faoliyat subyektililigida o'zini erkin va mustaqil qobiliyatlarini rivojlantirish va namoyon qilish, qiziqishlarni to'g'ri aniqlab rivojlantirishi va shu qiziqish asosidagi o'z sohasini tanlab ijtimoiy muhitda o'z o'rnini tanlashida ham o'zini anglash jarayonini rivojlantirish muhim jarayon hisoblanadi.

O'smirlarga xos psixologik xususiyatlar:

- Tashqi va ichki qiziqishni ichki o'zini tahlil qilishdagi noaniqlik;
- Fiziologik va gormonologik beqaror o'sish natijasida, hissiy ta'sirchanlik va kayfiyatdagi o'zgaruvchanlik;
- Feministik, maskulistik va neytral shaxs sifatlarining munosabatda bo'lib turgan ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi xos;
- Tezda shaxsiy va ijtimoiy muhit bilan bog'liq qaror qabul qilish;
- Irodasizlik, qat'iyatsizlik va dadillikning sust bo'lishi;
- Anglash jarayonlaridagi noadebkatlik

Yuqoridagi psixologik xususiyatlar to'g'ri shakllantirish o'zini anglash jarayonini ham ilk bolalik davridan ilmiy va hayotiy bilimlar bilan bog'liq holda rivojlantirsak, ushbu davrdagi krizis (qiyinchilik)ning yengil bo'lishi va yuqoridagi muammoli holatlarni bartaraf qilinishiga sabab bo'ladi.

O. Kozlova olib borgan shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiyaning kelajakdagi mutaxassislar "Men" konsepsiyasi tuzilishidagi munosabatiga asosan olib borgan tadqiqotida ham bo'lajak mutaxassislarning o'zini-o'zi anglash tushunchasining o'ziga xosligi, shaxsiy inqirozlarni yengib o'ta olishi, ko'p qirrali va ko'p bosqichli bo'lajak mutaxassislarning konsepsiyasining o'ziga xosligini, sifat jihatlarini aniqlash, tarkibiy qismlar, uning quyi tizimlari nisbati dinamikasi, shaxsiy va ijtimoiy o'ziga xoslik, o'zini-o'zi anglashning kategorik holati va muhim xususiyatlariga aniqlik kiritgan. [2]

"Men" likni tog'ri shakllantirish kelgusida, ulardagi psixologik yoshga xos rivojlanish va qiyinchiliklarni yengishiga, ta'lim jarayonida bilimlarni to'liq samarali o'zlashtirishida katta ahamiyatga ega. O'zini anglashning tashqi va ichki ko'rinishi borki, ichki o'z-o'zini anglash bizning ta'sirlarimiz, e'tiqodlarimiz, idroklarimiz, qiziqishlarimiz, maqsadlarimiz, shaxsiyatimiz, qadriyatlarimiz va mazmunli hayot shakllarimizga ta'sir etgan holda namoyon bo'ladi. Tashqi o'z-o'zini anglash tashqi ko'rinish va xatti-harakatlarimizni idrok

etishimizni o'z ichiga oladi. Tashqi o'z-o'zini anglash, shuningdek, o'z-o'zini anglashning ijtimoiy jihatini, ya'ni boshqalarning bizga aytganlariga nisbatan o'zimizni hurmat qilishimizni (teskari aloqa), odamlarning bizga qanday munosabatda bo'lishi va xatti-harakatlarimizning boshqalarga ta'siri haqidagi tasavvurlarimizni va boshqalarga qanchalik sezgir ekanligimizni o'z ichiga oladi. [3] Ushbu davrda aynan tashqi o'zini anglash ustunroq bo'lib bu ichki qismiga ham ta'sir o'tkazadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'oziyev E. Umumiy psixologiya: Darslik. – T.: Universitet, 2002 .- 96b.
2. Золотарева О. С. Влияние материнской депривации на развитие я-концепции детей подросткового возраста//дисс. автор. кандидата психологических наук. Астрахань – 2007. -22
3. Abdunazarova Sh.Sh. Talabalarda o'z-o'ziga bo'lgan munosabatning psixologik xususiyatlari. "Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami (2025-yil 26-27-sentabr) 2-qism 249-b.

